

Xidirova Barno Bahodir qizi

Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti “Yer kadastrini va yer tuzish” ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA DAVLAT YER KADASTRINI YURITISH

Annotatsiya: Ushbu maqola yer kadastrini yuritishda zamonaviy texnologiyalar va GAT dasturlarini qo‘llash ishning samaradorligini oshirishi to‘g‘risida keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Yer kadastrini, GAT, yer kodeksi, innovatsion texnologiyalar

Abstract. This article is cited on the fact that the use of modern technologies and GAT programs in maintaining the land cadastre increases the efficiency of work.

Keywords. Land cadastre, GAT, land code, innovative technologies.

Аннотация. В данной статье говорится о том, что применение современных технологий и программ Гат при ведении земельного кадастра повышает эффективность работы.

Ключевые слова. Земельный кадастр, ГАТ, Земельный кодекс, инновационные технологии.

Kirish. Yer bebaho boylik. Yerning har bir qarichidan oqilona, samarali va belgilangan maqsadda foydalanishni ta’minlash, yerlarni muhofaza qilish, yer bilan uzviy bog‘langan davlat kadastrlari yagona tizimini to‘laqonli yuritish muhim vazifadir.

Yer umummilliy boylik, O‘zbekiston xalqining hayoti, faoliyati va farovonligi asosi, eng muhim tabiiy resurs hisoblanadi. Shu sababli, yerlardan oqilona, samarali va belgilangan maqsadda foydalanishni ta’minlash, yerlarni muhofaza qilish, yer bilan uzviy bog‘langan Davlat kadastrlari yagona tizimini to‘laqonli yuritish davlatning eng muhim vazifalaridandir.

Iqtisodiy sohadagi keng ko‘lamli o‘zgarishlar yer va unga bog‘liq resurslarning aniq hisobini yuritish, ulardan oqilona foydalanish tizimini yana-da takomillashtirishni talab etmoqda.

Yer kadastrini, davlat yer kadastrini - yagona davlat kadastrlari tizimining asosiy tarkibiy qismi, yer resursining tabiiy, xo‘jalik, huquqiy rejimi, toifalari, sifat xususiyatlari va qimmatini, yer uchastkalari o‘rni, o‘lchamlari, chegarasi va maydoni, ularning yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlar o‘rtasidagi taqsimoti to‘g‘risidagi ma’lumotlar hamda hujjatlar majmui.

Yer kadastrini yuritish jarayoni quyidagilarni o‘z ichiga oladi: aerokosmik suratga olish, topografiya - geodeziya, haritagrafiya, tuproqshunoslik, agrokimyo, geobotanika, gidrogeologiya ga oid va boshqa izlanishlar va tadqiqotlarni o‘tkazish, yerlarni miqdor va sifat jihatdan hisobga olish va baholash, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarini davlat ro‘yxatiga olish; yerlarni taqsimlash, ulardan foydalanishni nazorat qiluvchi davlat xizmat organlarini faoliyatini muvofiqlashtirish; yerlarning holati, mavjudligi va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi hisobotlarni tuzish; joriy (mavsumiy) tadqiqotlar, suratga olish, yer o‘lchash

ishlarini hamda yer monitoringi ma'lumotlaridan foydalangan holda yer kadastriga oid axborotlar bankini yaratish va uni tartibga solib turish.

Rivojlangan davlatlarda ham yer kadastru yuritiladi. Uning ma'lumotlaridan yer egalariqa soliq solish, yerdan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan tijorat ishlarini tartibga solish, yer bo'yicha bitishuv va nizolarni hal etish, yerni garovga qo'yish va b.da foydalaniladi. O'zbekiston Respublikasida yer uchastkalariga bulgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish va yerlarni miqdoriy va sifatini hisobga olish Yer resurslari davlat qo'mitasi tomonidan qabul qilingan nizomlar va me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

GAT geoaxborot tizimi-bu bu asosiy vazifalari tabiat va jamiyat hodisalarining geofazoviy ma'lumotlarini maxsus vositalar yordamida to'plash, saqlash, boshqarish, tahlil qilish, modellashtirish va tasvirlashdan iborat bo'lgan mutaxassis va tahlilchilar boshqaruvi ostidagi umumlashgan dasturiy tizimdir Geoaxborot tizimining asosiy vazifalari bu fazoviy ma'lumotlar yig'ish yig'ish va qayta ishlash orqali avtomatlashgan raqamli ma'lumotlar bazasini yaratish uni kelgusida tahlil qilish va bosmaga chiqarish uchun saqlashdan iborat giyoaxborot tizimining vazifasini faqatgina kompyuter orqali raqamli karta ishlab chiqarish deb tushunish to'g'ri emas chunki ushbu tizim orqali olingan ma'lumotlar tahlil etilib muhim qarorlar qabul qilishda ham bu tizim bizga usulda yaratilgan jadval ma'lumotlardan farqli ravishda ma'lumotlar so'rovi turli qatlamlarni birlashtirish kabi operatsiyalarni bajarish imkonini beradi.

Geoaxborot tizimi geografik axborot tizimi yer yuzidagi obyektlar jumladan binolar shaharlar yo'llar daryolar davlatlarni kompyuter orqali tasvirlashga yordam beradi hozirda bu tizimni insoniyat faoliyati va dunyoda bo'layotgan o'zgarishlar voqea hodisalarini tasvirlash tahlil qilish muammoli vaziyatlarni aniqlash va ularni tushunish uchun qo'llab kelmoqdalar kartalar orqali tasvirlab kiyib berilgan tahliliy muammolar insonga har xil sonlar diagrammalardan ko'ra vizual ravishda samaraliroq tushunishga yordam bermoqda buning sababi hozirda gat orqali vizual ko'rinishda biror bir muammoni tasvirlashda juda ko'plab usullardan foydalanilmoqda usullar jumlasiga turli ranglar uch o'lchamli ko'rinishlar vektorli tasvirlashlar kiradi va bu o'z navbatida matnlar yoki sonlar orqali tushunish qiyin bo'lgan jihatlarni ochib beradi shuning uchun bu tizim texnologik tizimlar turkumida bo'lsada ijtimoiy-iqtisodiy va sog'liqni saqlash sohalarida ham keng qo'llanila boshladi hozirgi kunda giyoaxborot tizimining ilmiy asoslari keng ko'lamda o'rganilmoqda va endilikda kartalar orqali tasvirlash geografik bilimlar sohasida isbotlangan usullardan biriga aylandi agar biron bir sohaga bir muammolarni tushunishga va ularni yechimini izlashga kirishadigan bo'lsak endilikda darhol o'sha muammoning raqamli kartasini ishlab chiqishimiz muammoning ko'lamini baholash orqali yechimlar izlashimiz va shunga yarasha qarorlar qabul qilishimiz mumkin bo'ladi.

Geoaxborot tizimining 4 ta asosiy tarkibiy qismlari mavjud:

1.Ma'lumotlarni to'plash tizimi. Bu tizimda ma'lumotlar turli xil manbalardan olinadi va boshlang'ich qayta ishlov amalga oshiriladi. Bu tizimning asosiy vazifasi turli xil fazoviy ma'lumotlarni o'zgartirish dan iborat.

2. Ma'lumotlarni saqlash va ajratish tizimi tizimning asosiy vazifasi fazoviy ma'lumotlarni ajratish yangilash va tahlil qilishdan iborat.

3 . Ma'lumotlarni boshqarish va tahlil qilish tizimi. Bundan turli masalalarni hal qilish uchun ma'lumotlar guruhlanadi, ajratiladi va modellashtiriladi

4 . Ma'lumotni chiqarish tizimi. To'liq yoki qisman ma'lumotlar bazasi jadval diagramma yoki karta ko'rinishda tasvirlanib bosmaga chiqariladi yoki foydalanuvchining talabiga ko'ra elektron yoki qog'ozli ma'lumot ko'rinishida beriladi .

Davlat kadastrlari yagona tizimiga ma'lumotlarni taqdim qilishning tarkibi va tartibi bo'yicha nizom o'zbekiston respublikasining davlat kadastrlari to'g'risidagi qonuni asosida ishlab chiqilgan bo'lib ushbu nizom mutasaddi vazirliklar davlat qo'mitalari va tashkilotlarning davlat kadastrlari yagona tizimiga ma'lumotlarni taqdim etishni belgilab beradi.

DKYT ko'p maqsadli axborot tizimi hisoblanib davlat kadastrlari to'g'risidagi ma'lumotlarni va boshqa barcha kadastr ma'lumotlarni o'z ichiga oladi mazkur nizomning axborot tizimi va bog'liqligi shundaki ushbu tizimda kiritiladigan barcha ma'lumotlar yer geodez kadastr davlat qo'mitasi tomonidan geoxborot tizimi shaklida qabul qilinadi va bunda yagona dastur sifatida ArcGIS dasturi fayllari qabul qilingan bundan ko'zlangan asosiy maqsad o'zbekiston hududi bo'ylab umumiy ma'lumotlarni qayd qilish va hisobini yuritishdan iborat . Mamlakatimiz hududida argiz dasturidan ilk marotaba 1999 yil 27 dekabrda birinchi versiyasi qo'llab kelingan. Hozirgi kunda kelib esa uzcad uzqad tizimi ishga tushirilib kelinmoqda.

Mamlakatimizda ko'chmas mulk obyektlarni xatlovdan o'tkazish va yerdan foydalanuvchilar chegaralarni aniqlash hamda ularga oid ma'lumotlarni tegishliligi bo'yicha uzkat axborot tizimiga kiritish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda prezidentimizning 2020 yil 7-sinjabrovdagi yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonda belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida O'zbekiston respublikasining yer fondi toifalariga kiruvchi sakkizta yo'nalish bo'yicha xatlov o'tkazilgan.

Uzkat axborot tizimiga kiritish ishlari kadastr agentligi va davlat kadastrlari palatasining tegishli buyruqlari asosida avvalo sinov tajribasi tariqasida Toshkent viloyatining Bekobod tuman tumanidan boshlandi tumanda ushbu yilning birinchi noyabriga qadar ko'chmas mulk obyektlari xatlovdan o'tkazildi yerdan foydalanuvchilar chegaralarini aniqlash ularga oid ma'lumotlarni uzkat axborot tizimiga kiritish hamda yer hisobini mazkur tizimda yuritish maqsadida tumanidagi 51 ta mahallada xatlov ishlarini olib borildi bugungi kunda yer fondi toifasidan qat'iy nazar har bir kuch emas mulk obyektiga nisbatan mazkur kadastr ma'lumotlarini aniq va tug'ilishi to'g'ri shakllantirish yuritilishini tashkil etish raqamlashtirilmagan ko'chmas mulk obyektlari hisobini yuritish va o'rnatilgan tartibda ularga raqam berilishini tashkil etish hamda tumandagi yer resurslar holatini o'rganishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yaqin yillargacha kadastr tizimi eng isloh qilishga muhtoj sohalardan biri edi odamlar uy-joyi yer olish bir masala bo'lsa uni hujjatlari ishlari muammo bo'lganligini yaxshi eslaymiz yugur yugur qog'ozbozliklarning eng mavjud nuqtasi ham shu tizimda bo'lardi hozir bu soha deyarli to'liq raqamlashtirildi barcha xizmatlari davlat xizmatlari markazi yoki yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali shafolat tezkor tarzda ko'rsatilyapti asosiysi tizimda qog'ozbozlikka chek qo'yilib odamlarning vaqti va naqdi kishandasi bo'lgan behuda ovoragarchilik bir necha barobarga kamaydi.

Raqamli texnologiyalar imkoniyatlari bundanda ko'proq natijalarga yetaklaydi mamlakatimizda joriy birinchi yanvardan boshlab kadastr va ko'chmas mulklarni ro'yxatdan o'tkazish integratsion axborot tizimi uzkat ko'chmas mulk obyektlarga bo'lgan huquqlarning davlat restiri hamda unga oid ma'lumotlar yuritiladigan ma'lumotlarning haqiqiyiligi va ishonchliligi davlat tomonidan kafolatlanadigan yagona axborot tizimi sifatida qabul qilindi bu loyihani faol amalga oshirish orqali kadastr fayllar va kuchmas mulkga bo'lgan huquqlar rivesterlardagi ma'lumotlarni qog'ozdan elektron shaklga to'liq o'tkazish ko'zlangan qolaversa tarmoq mutaxassisleri oldida

elektron hukumat tizimining bazaviy maydonchasida ko'chmas mulk obyektlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish kadastrlar ham turibdi.

2022-2026 - yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida raqamli iqtisodiyotni asosiy driver sohaga aylantirib uning hajmini kamida ikki yarim baravar oshirish belgilangan. Bu vazifalar joriy yil prezident farmoni bilan qabul qilingan davlat dasturi asosida faol amalga oshiriladi. Kadastr tizimida raqamlashtirish ko'lamini oshirish ham ana shu jarayonlarning bir qismi demak sohada kutilayotgan katta o'zgarishlar yangilanishlar hali oldinda.

Mamlakatimizda yer va mulk munosabatlarini tartibga solishda zamonaviy mexanizmlarning yo'lga qo'yilishi mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, 2023 yil 1 yanvardan boshlab kadastr va ko'chmas mulklarni ro'yxatdan o'tkazish integratsion axborot tizimi uzkat ishlab chiqilib qog'oz shaklida yoki boshqa axborot tizimlarda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar to'g'risidagi ma'lumotlar har bir ko'chmas mulk obyektini identifikatsiyalangan holda bosqichma-bosqich ushbu tizimga to'liq o'tkazilmoqda. Hozirda davlat obyektlarini uzkat tizimiga olib o'tish borasida keng ko'lamli ish olib borilmoqda.

Davlat yer kadastrini mamlakatning yer resurslarini boshqarish va nazorat qilishda asosiy rol o'ynaydi. Yer kadastrini orqali yer maydonlari to'g'risidagi ma'lumotlar tizimli ravishda to'planadi, qayd etiladi va yangilanadi. So'nggi yillarda innovatsion texnologiyalar va raqamli yechimlar yer kadastrini yanada samarali va aniq boshqarishga imkon yaratmoqda.

Raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi yer kadastrini yuritishda muhim ahamiyatga ega. Quyidagi texnologiyalar bu sohada katta o'zgarishlarni amalga oshirishga imkon beradi:

Geografik axborot tizimlari (GAT): GAT yer maydonlarining aniq joylashuvi va chegaralarini elektron shaklda boshqarish imkonini beradi. Bu texnologiya orqali yer uchastkalari haqida batafsil va doimiy yangilanib turuvchi axborotlar yig'iladi va vizualizatsiya qilinadi. Yer kadastrini yangilashda dronlar va sun'iy yo'ldosh tasvirlari juda samarali hisoblanadi. Bu usullar yordamida katta yer maydonlarini qisqa muddat ichida yuqori aniqlikda suratga olish va ma'lumotlar to'plash mumkin.

Yer kadastrini raqamlashtirish orqali davlat va fuqarolar uchun bir qator qulayliklar yaratiladi. Raqamli kadastr tizimlari yordamida fuqarolar va tadbirkorlar o'z yer maydonlari haqida kerakli ma'lumotlarni masofadan olishlari mumkin. Bu esa vaqt va mablag'ni tejashga yordam beradi. Yer maydonlari haqidagi ma'lumotlarning raqamli formatda saqlanishi va doimiy yangilanishi kadastr jarayonlarini tezkor va aniq qiladi. Ma'lumotlarning raqamli shaklda ochiqligi va avtomatlashtirilgan jarayonlar korrupsiya holatlarini kamaytirishga yordam beradi. Innovatsion texnologiyalarni yer kadastrida joriy etish juda samarali bo'lsada, ayrim qiyinchiliklar ham mavjud.

Malakali mutaxassislar yetishmovchiligi, zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etishda ularni boshqarishga ixtisoslashgan malakali mutaxassislar talab etiladi. Bu kadrlarni tayyorlash esa vaqt va mablag' talab qiladi. Texnik va moliyaviy cheklovlar: Innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish uchun kerakli texnik vositalar va mablag' talab qilinadi. Bu ayrim mamlakatlar uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

Xulosa: Innovatsion texnologiyalar yordamida davlat yer kadastrini yuritish sohadagi samaradorlikni oshiradi, fuqarolar uchun yanada qulay sharoitlar yaratadi va yer resurslarini boshqarish tizimini yaxshilaydi. Bu jarayon o'z navbatida davlat boshqaruvini yanada ochiqroq

va ishonchliroq qilishga xizmat qiladi. Shu sababli, davlat yer kadastrini yuritishda innovatsion yondashuvlar yanada rivojlantirilishi va qo‘llab-quvvatlanishi lozim.

Адабиётлар рўйхати

1. Рафиқов А.А. Жанубий Орол минтақасининг чўлланиш жараёни. – Тошкент, 1997 йил.
2. Prenov Sh. M., Safarov E. Yu. “Analysis of eco-meliorative condition for soil of Southern Aral Sea region, and about its mapping” European Science Review № 10/2015. Page 15-17.
3. Bekanov K.K., Safarov E.Yu., Reymov P.R., “Determination of land use/cover variations and land use potentials using methods Remote sensing and GIS: A case study of Kegeyli district, Karakalpakstan, Uzbekistan” “Problems of Architecture and Construction” Scientific and technical Jurnal Page 126-130.
4. М.И.Рузметов, О.А.Жабборов, Р.Қ.Қўзиев, С.А.Абдуллаев, З.А.Жаббаров, А.С.Пулатов, Ж.Б.Мусаев, А.Ж.Эргашев, З.Х.Саломов, Ш.В.Агзамова, М.А.Мирзобоева, О.Сафаров, У.Х.Нурматов, Ш.М.Холдоров, М.Р.Кунгиров, Ж.Деҳқонов. “Ўзбекистон суғориладиган ерларининг мелиоратив ҳолати ва уларни яхшилаш” Тошкент, “Университет”, 2018. - 312 бет.
5. Хоанг Зыонг Хуан. Картографирование сельскохозяйственных культур по космическим снимкам среднего разрешения// Материалы VII Сибирской научно-практической конференции «Молодых ученых по наукам о Земле»/ Новосибирск, 2014. – С. 438-439.